



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA
IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRLIGI HUZURIDAGI TURIZM QO‘MITASI “IPAK YO‘LI”
TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI**

Yangi O‘zbekiston – uning tarixi, buguni va kelajagi mavzusida taqdimot



Samarqand – 2024

- Qadimgi sivilizatsiyalar: O'zbekiston tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi, mintaqada sug'diylar, baqtriyaliklar va xorazmiylar kabi sivilizatsiyalar gullab-yashnagan.




O'zbekiston Xitoy va G'arb o'rtasidagi savdo va madaniy almashinuvni osonlashtirgan Ipak yo'lining muhim qismi edi.

Buyuk Ipak yo'li 12 ming km. chaqirim uzunlikda bo'lgan.

U Xitoyning qadimiy poytaxti Sian shahridan sariq dengiz sohillaridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Eron, Mesopatamiya orqali o'rta Yer dengizi sohillarigacha borib yetgan. Ikkinchi yo'nalish Markaziy Osiyo orqali Hindistonga olib borgan.

Savdogarlar moldan tashqari turli fan va madaniyat sohalari yangiliklarini ham keltirganlar. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan memorchilik yodgorliklarini o'rganishda turli hunarmandchilik buyumlari, tangalar topilgan.




Qadimiy Buyuk Ipak yo‘li Markaziy Osiyo davlatlarinig zaminida yashayotgan barcha xalqlarning farovon turmushi uchun barqaror zamin yaratadi.



Sharqdan kelgan karvon har bir yirik shahar bozorlarida to‘xtab savdo ishlarini amalga oshirgan.

VIII asr boshlarida arablar Markaziy Osiyoni to'liq bosib oldilar, islom dini mafkura va turmash tarzi sifatida aholi o'rtasida keng tarqaldi.

- Ammo VIII asr oxiri-IX asr boshida arab sulolalari Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o'zgartirishga majbur etdi.
- IX-XII asrlarda mamlakat ma'naviy hayotining asosi islom mafkurasi edi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat berdilar. Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markaziga aylandi. Masjid, madrasa va xonaqolar qurish uchun maxsus joylar ajratildi. Arab tili va uning imlosi joriy etildi.
- Eng mashhur madaniyat markazi shu davrda Bag'dod shahri edi. Bag'dodda «Bayt ul hikma» (donishmandlar uyi) tashkil etilib, unda Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziylar ta'lim olganlar.





Bu davr O'rta Osiyoda me'morchilik san'ati ham gurg'abr rivojlandi. Buxoroda Dehgaron, Masjidi kalon, Namozgoh, Mag'oki Attoriy masjidlari, Surxondaryodagi Jarqo'ton minorasi, Ko'hna Urganchda Faxriddin Roziy maqbarasi, Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi, Talxojanbobo masjidi va boshqa yodgorliklar me'morchilik san'atining yorqin namunalari hisoblanadi.

XI-XII asrlarda ijtimoiy fanlar ham anchagina taraqqiy etdi. Masalan, shoir Abu Abdullo Rudakiyning prozaik asarlari, Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»si, Gardiziyning «Zayn-ul-bahor» («Go'zal xabarlar») asari, Majididdin Admoning «Tarixi mulki Turkiston» («Turkiston tarixi»), Nizomulmulkning «Siyosatnoma»si, Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilik» asarlari shu davrga oid bo'lib, undan tashqari shu davrlarda Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariy, Amak Buxoriy, So'zani Samarqandiy kabilar ham ijod etdilar.

Amir Temur va temuriylar saltanati

Temuriylar davri – oʻrta asrlarda sohibqiron Amir Temur asos solgan markazlashgan buyuk saltanatni idora etgan sulola. Temuriylar davlati hududi shimolda Ili daryosi va Xorazm (Orol) dengizidan janubida Fors qoʻltigʻiga qadar, sharqda Xitoy va Hindistondan gʻarbda Trabzun (Qora dengiz)ga qadar ulkan maydonni qamragan.



Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida Samarqandda Rasadxona, Buxoroda, G‘ijduvonda va Samarqandda madrasalar qurildi.

Bu davrda birgina Samarqand shahrida 100 dan oshiq olimlar fanning turli sohalarida ajoyib yutuqlarga erishgan. Ular orasida Taftazoniy, Mavlono Ahmad, o‘z zamonasining “Aflotuni” deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiy, Muhammad Hafoviy, mavlono Ali Qushchi va boshqa taniqli zotlar bor edi.

Qozizoda Rumiy Samarqandda Ulug‘bek rasadxonasi qurilishiga ham rahbarlik qilgan, Ulug‘bekning «Ziji Kurogoniy» asarida yulduzlar jadvalini tuzishda qatnashgan.



Shu tariqa, olimu ulamolar Amir Temur va temuriylar saltanatida katta hurmatga va mavqega ega ijtimoiy qatlamga aylangan ediki, bu Movarounnahr va Xurosonda Ikkinchi Islom uygʻonish davrini yuzaga chiqardi.

Shohruh (1405-1447), Mirzo Ulugʻbek (1409-1449), Sulton Abu Said (1451-1469), Sulton Husayn (Boyqaro) (1469-1506) davrlarida fan va madaniyat yuksalib, Movarounnahr va Xuroson islom dunyosining yirik madaniy markazlari sifatida shuhrat topdilar.

Alisher Navoiy ham oʻz davrining koʻplab fan, sanʼat va adabiyot namoyandalariga homiylik qilib, Sohibqiron asos solgan anʼanalarni davom ettirgani maʼlum. Jumladan, Kamoliddin Behzod, Sulton Ali Mashhadiy, Husayn Uddiy, Kamoliddin Binoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Husayn Voiz Koshifiy, Mirxond, Zayniddin Vosifiy va boshqalar ijodiy faoliyatida Alisher Navoiyning homiyligi katta oʻrin tutgan.





Rossiya imperiyasi va Sovet davri: XIX asrda O'zbekiston Rossiya imperiyasi, keyinroq esa Sovet Ittifoqi tarkibiga kirdi. Sovet davri sanoatlashtirish va modernizatsiya bilan birga muhim ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarni ham olib keldi.



O'tgan asrimizning 80-yillari oxirida respublikamizda yuzaga kelgan og'ir ijtimoiy-iktisodiy vaziyat

- ❖ yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha sobiq ittifoqning 15 ta respublikalari ichida 12-o'rinda;
- ❖ aholi jon boshiga milliy daromad sobiq ittifoqning o'rtacha ko'rsatkichidan 2 barobar kam bo'lgan;
- ❖ aholining xalq iste'moli mollari bilan ta'minlanishi bor-yo'g'i 40 foizni tashkil etgan;
- ❖ aholi daromad darajasi va asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish jihatidan ittifoqdosh respublikalar orasida oxirgi o'rinlardan birida turgan.



- O‘zbekiston 1991-yilda Sovet Ittifoqidan mustaqil bo‘lib, suveren davlatga aylandi.
- Mustaqillik tufayli o‘zligimizni angladik, ozod xalq, mustaqil davlat sifatida O‘zbekistonning bor buy-bastini, ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkoni ochildi.
- “Mustakillik” va “islohot” tushunchalariga mushtarak so‘zlar sifatida karashimiz tabiiy, albatta. Chunki, faqat mustaqil davlat va mustakil jamiyatdagina isloxotlarni amalga oshirish mumkin.
- Yurtimizning iqtisodiyoti keng qamrov kasb edi.
- Fuqarolarning hayot darajasi, siyosiy-ijtimoiy faolligi, ongu tafakkuri tobora yuksaldi.

O'zbekiston prezidentlik respublika.

Shavkat Mirziyoyev - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2016-yildan)



Mustaqillik - buyuk ne'mat.

Inson qadrini ulug'lash – yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir.

Bu borada jamiyatimiz asosi bo'lgan mahalla hal qiluvchi o'rin tutadi.

Mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi.

Mahalla obod bo'lsa, mamlakat obod bo'ladi.

Shu bois, bundan buyon har bir mahallada samarali ish olib borish faoliyatimizning bosh mezoniga aylanadi.

Sh.Mirziyoyev

“Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Rennsans”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari (21 avgust 2021 y.)

“Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz.

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma‘naviy uyg‘onish jarayonlari milliy o‘zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa **“Renessans”** — uyg‘onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon.

Ma‘lumki, bugungi O‘zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg‘onish davriga — Birinchi (ma‘rifiy — IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar — XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo‘lgan. Bu — jahon ilm-fanida o‘z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun **“Yangi O‘zbekiston”** va **“Uchinchi Renessans”** so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda.



Prezident Mirziyoyev hokimiyatga kelganidan so‘ng iqtisodiyotni liberallashtirish, inson huquqlarini yaxshilash, qo‘shni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan muhim islohotlarni amalga oshirildi.



**2022-2026 YILLARGA MO`LJALLANGAN
YANGI O`ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI**

1 INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK
JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI
XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISH

2 MAMLAKATIMIZDA ADOLAT VA QONUN USTIVORLIGI
TAMOYILLARINI TARAQQIYOTNING ENG ASOSIY VA
ZARUR SHARTIGA AYLANTIRISH

3 MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH
VA YUQORI O`SISH SUR`ATLARINI TA`MINLASH

4 ADOLATLI IJTIMOIIY SIYOSAT YURITISH,
INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH


5 MA`NAVIY TARAQQIYOTNI TA`MINLASH
VA SOHANI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH

6 MILLIY MANFAATLARDAN KELIB
CHIQQAN HOLDA UMUMBASHARIY
MUAMMOLARGA YONDOSHISH

7 MAMLAKATIMIZ XAVFSIZLIGI VA MUDOFAA SALOHIYATINI
KUCHAYTIRISH, OCHIQ, PRAGMATIK VA FAOL TASHQI SIYOSAT OLIB BORISH



2022–2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси



www.strategy.uz



[@gdsc.uzbekistan](https://www.facebook.com/gdsc.uzbekistan)



[@gdsc_uzb](https://twitter.com/gdsc_uzb)



[@gdscuzbekistan](https://www.telegram.me/gdscuzbekistan)



[@gdscuzbekistan](https://www.instagram.com/gdscuzbekistan)



[Development Strategy Center](https://www.youtube.com/DevelopmentStrategyCenter)



"TARAQQIYOT STRATEGIYASI"
MARKAZI



ЎЗБЕКИСТОН
СТРАТЕГИЯСИ | 2030

“ЎЗБЕКИСТОН – 2030” СТРАТЕГИЯСИНING УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ:

I

ҲАР БИР ИНСОНГА ЎЗ САЛОҲИЯТИНИ
РЎЁБГА ЧИҚАРИШИ УЧУН МУНОСИБ
ШАРОИТЛАРНИ ЯРАТИШ

44 та
мақсад

II

БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ ҶСИШ
ОРҚАЛИ АҲОЛИ ФАРОВОНЛИГИНИ
ТАЪМИНЛАШ

17 та
мақсад

III

СУВ РЕСУРСЛАРИНИ ТЕЖАШ ВА
АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ

12 та
мақсад

IV

ҚОНУН УСТУВОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ,
ХАЛҚ ХИЗМАТИДАГИ ДАВЛАТ
БОШҚАРУВИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

16 та
мақсад

V

“ХАВФСИЗ ВА ТИНЧЛИКСЕВАР ДАВЛАТ”
ТАМОЙИЛИГА АСОСЛАНГАН СИЁСАТНИ
ИЗЧИЛ ДАВОМ ЭТТИРИШ

11 та
мақсад



- O'zbekiston iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishni va iqtisodiy o'sishni davom ettirish uchun ko'proq xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni maqsad qilgan.
- Tarixan qisqa davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti qariyb 6 barobar o'sdi, aholi jon boshiga real daromadlari 12 barobar oshdi, bunga erishish uchun o'tgan davr mobaynida iqtisodiyotimizga 190 mlrd. dollar hajmidagi investitsiyalar, jumladan, 65 mlrd. dollardan ortiq xorijiy sarmoyalar jalb etildi.
- Iqtisodiyotda sanoatning ulushi 34 foizni, eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda.
- 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini ikki barobardan ziyod ko'paytirish, iqtisodiyotimiz tarkibida sanoatning ulushini 40 foizga yetkazish bo'yicha aniq choralar belgilab olingan.





Mamlakat mintaqada barqarorlik, savdo va hamkorlikni rivojlantirish uchun Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga intiladi.

Mamlakatimiz mintaqada barqarorlik, savdo va hamkorlikni rivojlantirish uchun Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga intiladi.

O'zbekiston yuritayotgan ochiq va o'zaro manfaatli hamkorlik siyosati Markaziy Osiyo mamlakatlarida qo'llab-quvvatlanmoqda.


Barqaror rivojlanishni, jumladan, ekologik muammolarni hal qilish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslar davom etmoqda.

2030-yilgacha bo'lgan davrda “yashil” iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasi va dasturi, sanoatda energiya samaradorligini oshirish dasturi, “yashil” iqtisodiyotga o'tish rejasi kabi ulkan chora-tadbirlar tasdiqlandi.



Madaniy merosni asrash: O'zbekiston XXI asr talablariga moslashgan holda o'zining boy madaniy merosini saqlab qolishni maqsad qilgan.

- Bugungi kunda mamlakatda **8210 ta moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyekti davlat muhofazasiga olingan bo'lib, shundan 4788 tasi arxeologiya, 2265 tasi arxitektura ob'ektlari, 625 tasi monumental san'at asarlari, 530 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi.**
- O'tmishdan bugungi kunga qadar zamonlar silsilasidan o'tib kelayotgan milliy madaniy merosimizga bo'lgan munosabat so'nggi yillarida tubdan o'zgardi. Iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida rivojlanib kelayotgan **turizm sohasida** sayyohlarni jalb qilishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirildi.




O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi va tarixiy joylari bilan mashhur bo'lib, butun dunyodan Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarga **sayyohlarni** jalb qiladi.



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekistonga 6,6 mln nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan. Bu ko‘rsatkich 2022 yilga nisbatan 1,4 mlnga yoki 26,6 foizga oshgan.

2023-yil davomida eng ko‘p tashrif Tojikiston (2 mln 155,2 ming), Qirg‘iziston (1 mln 757,1 ming) va Qozog‘iston (1 mln 333,3 ming nafar)dan bo‘ldi. Sayyoh sifatida Rossiyadan 714,3 ming kishi kelgan bo‘lsa, Turkiyaning ko‘rsatkichi 106,5 ming nafarni tashkil etdi.





E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!